

A NEW INTERPRETATION OF POETIC IMAGES IN POETRY EXPRESSION OF NEW POETIC IMAGES IN POETRY EXPRESSION OF NEW POETRY IN POETRY

Jabborova Sohiba Tolqinjonovna

Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology

Assistant of the department "Uzbek language, pedagogy and physical culture"

Jabborova Sokhiba Tulkinjonovna

Assistant of the Department of Uzbek Language, Pedagogy and Physical Culture of Andijan

Institute of Agriculture and Agrotechnology

Zhabborova Sokhiba Tulkinjonovna

Assistant of the Department of the Uzbek Language, Pedagogy and Physical Culture of the Andijan

Institute of Agriculture and Agricultural Technologies

SHE'RIYATDA YANGICHA POETIK OBRAZLAR TALQINI ВЫРАЖЕНИЕ НОВЫХ ПОЭТИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ В ПОЭЗИИ EXPRESSION OF NEW POETRY IN POETRY

Jabborova Sohiba To'lqinjonovna

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

"O'zbek tili, pedagogika va jismoniy madaniyat" kafedrasida assistenti

Жабборова Сохиба Тулкинжонова

Ассистент кафедры узбекского языка, педагогики и физической культуры Андижанского
института сельского хозяйства и агротехнологий

Zhabborova Sokhiba Tulkinjonovna

Assistant of the Department of the Uzbek Language, Pedagogy and Physical Culture of the Andijan

Institute of Agriculture and Agricultural Technologies

Annotation. The peculiar status of the poetesses in the poetry of the period of independence was evident in their new poetic images. And this showed a radical turn in the original expression in literature associated with the soul.

Keys words. Poetic image, feeling of love, poetry of the soul, detail, traditional image, individual method.

Annotatsiya. Mustaqillik davri she'riyatida ayol ijodkorlarning alohida mavqei ular yaratgan yangicha poetik obrazlarda namoyon bo'ladi. Bu esa adabiyotimizda ko'ngil bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos ifodaning tub burilishini ko'rsatib bera oladi.

Kalit so'zlar. Ruhiy olam, poetik obraz, muhabbat tuyg'usi, ko'ngil she'riyati, detal, an'anaviy obraz, individual uslub.

Аннотация. Своеобразный статус поэтесс в поэзии периода независимости был очевиден в их новых поэтических образах. А это показало коренной поворот своеобразного выражения в литературе, связанного с душой.

Ключевые слова. Духовный мир, поэтический образ, чувство любви, поэзия души, деталь, традиционный образ, индивидуальный метод.

KIRISH: Bugungi kun she'riyati haqida fikr bildirar ekanmiz, zamonamiz va zamondoshimizning ruhiy olami yangicha poetik obrazlarda talqin etilayotganligiga guvoh bo'lamiz. Buning sababi esa insonning bezovta o'y-xayollarini, nekbin kayfiyatini, dardini tasvirlashda qo'llanilgan har bitta detaldan tortib, tasviriy ifodalargacha – hamma-hammasi davr va ijodkorning umumiy xulosasidan kelib chiqib ifoda etilayotganligi bilan belgilanadi.. Bu esa she'riyatda poetik sathning kengayib borayotganligini ko'rsatadi, nazarimizda. Bugungi serma'no va serohang she'riyat ayniqsa ayol ijodkorlar she'riyatiga ham taalluqli bo'lib, unda ifodaning ta'sirchanligi, mazmunning mushohada boyligi va albatta, shakldagi yangicha izlanishlar bilan keng ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, har bir asarda ijodkor yangicha poetik obrazlar yaratar ekan, qaysidir ma'noda u o'zi haqida so'zlayotgandek ko'rinadi. Bugungi she'riyat ko'ngil she'riyati ekan, ijodkor ham his-tuyg'ularini qolipga solishni istamaydi. Bu hol ayol ijodkorlar she'riyatida yana ham aniq ko'rinadiki, ular ro'yi-rost butun axvollarini bayon qiladilar. O'z ruhiy holatlarini, tuyg'ularini, kechinmalarini esa poetik obrazlar vositasida yanada ishonarli va badiiy chiqishiga erishadi. Gohida mulohazali, gohida tajang, gohida sokin kayfiyat shoirlar ruhiy olamining o'zgaruvchan ekanligini ham ko'rsatadi. Bu esa ularning ijodini yanada rang-barang ko'rsatishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI: Poetik obraz yaratish masalasi, uni davr va zamonga hamohangligi, ijodkorning individual uslubi, ijodkor konsepsiyasi kabi nazariyalar haqida adabiyotshunos olimlar qator mulohazalarni keltirib o'tganlar.

Bu davr she'riyatida yuzaga kelgan obrazlar tizimi haqida bir qator doktorlik dissertatsiyalari yaratildi. Shulardan B.Akramovning "Hozirgi o'zbek she'riyatida poetik obraz muammosi" doktorlik dissertatsiyasida badiiy fikrning shakllanish asoslari, poetik fikrning yuzaga kelishini guruhlash va turkumlash, poetik obraz yaratishning manbalari haqida asosli fikrlar aytiladi. [2.B 40]

Mustaqillik davri she'riyati haqida o'z mulohazalarini bildirgan Q. Yo'ldosh "Istiqlol butun o'zbek millatini dunyoga, dunyoni esa o'zbekka yaqinlashtirgan bo'lsa, istiqol she'riyati har bir o'zbekni o'z ko'ngliga yaqinlashtirdi, uning adoqsiz labirintlarini, purviqor cho'qqilarini, tubsiz teranliklarini, xullas, alohida qalbning naqadar poyonsiz va serqirra ekanligini aks ettirdi" [5.B.102], deb yozadi. Olimning nazdida bu davrga kelib, she'riyatda odamni bilish, olamni bilishdanda mushkul hodisa ekanligi ta'kidlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI: Xususan, Zebo Mirzayeva ijodini tahlil qilar ekanmiz, uning ishqqa yo'g'rilgan dunyosi o'quvchini tamoman o'ziga mahliyo etadi. E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, shoira she'rlarining o'zak qismini ishq mavzusi band etgan. O'sha o'zakdan esa Yaratganga, vatanga, ota-onaga va yorga bo'lgan muhabbat paydo bo'lgan. U o'z muhabbatini turli poetik obraz va badiiy tasvirlar bilan ifoda etmoqqa urinadi. Natijada har bir she'rida kutilmagan tashbehlarga, ramzlarga boy olam paydo bo'ladi. O'quvchi ramzlari tilini, timsollar mohiyatini to'g'ri anglasagina bu olamning yana bir sirini tushungandek bo'ladi.

Shoira ijodida muhabbat tuyg'usi *maysa, daraxt, qush, nur, daryo* kabi timsollarda poetik ma'no kasb etib keladi. Bu timsollar lirik qahramonning hislari bilan tutashib, ishqning ohorli tasvirlarini yaratadi. Ijodkorning ishq mavzusida bitilgan she'rlarida qandaydir sehr, joziba, sir bordek tuyuladi. Undagi otashin hijron kayfiyati o'quvchiga tezda yuqadi.

Men hanuz o'shaman,

toshqin bir daryo.

Toshlarni toshlarga urib yig'lagan.

Quhog'ingda oqmoq istagan ammo...

Bu tor qirg'og'ingga sig'magan. [4.B.67]

Ushbu parchada ijodkor o'xshatish va qarshilantirish san'ati orqali o'z ruhiy holatini yoritgan. O'zining hanuz o'sha – ishq ekanligini toshqin daryoga qiyoslagan va lirik qahramon she'rida daryo timsolida gavdalangan. Daryoning bag'rida ming-minglab tosh bo'lgani kabi, lirik qahramonning qalbida ham g'amu-anduh toshlari bisyor. U bu anduhlardan azoblanadi va ko'z yosh to'kadi. Uning orzusi yor qalbida daryodek toshmoq bo'lsa-da, u yerda o'ziga joy yo'qligidan o'kinadi.

Mensiz yasha,
 Mensiz kul, yig'la...
 Mensiz o'tsin har bitta oning.
 Toki meni degan chog'ingda
 Chiqib ketsin tanangdan joning.

“Lirika mudom ruhiy kechinma va ong yaxlitligiga intiladi. Tuyg'u hamda tafakkurda namoyon oniy kayfiyat tasviri lirikaning ustuvor xususiyati. Binobarin, ijtimoiy voqelik va hayot falsafasidan sizib chiqadigan hissiy ilg'am psixologik ifodani markazlashtiradi” [8.B.38], deb yozadi Q. Turdiboyev. Haqiqatdan ham ijodkorning oniy kayfiyat lahzasi she'r mazmuniga singib, betakror ruhiy manzarani yaratadi. Bunda vaqti kelsa tashbehu-mubolag'aning ham keragi bo'lmaydi. Zebo Mirzayevaning “Qahr” deb nomlanuvchi ushbu she'rda ham sof tuyg'ulardan yaralgan achchiq iztiroblarning nafasi seziladi. Bir o'qishda she'r lirik qahramonning qarg'ishiga ham o'xshab ketadi. Lekin u bevafo yoriga chindanda yomonlik tilamaydi.

Garchand sening yodingsiz o'tgan
 Umrinni hech umr demasman.
 Lekin yig'lab, ortingdan ketgan
 Ko'nglimdan ham rozi emasman!
 Mayli, meni zulmkor ata,
 Men shundayin qattol bag'irman!
 Bir qalandar ishq menda, ammo
 Sendan kechib, sen deb og'rirman...

Muhabbat tuyg'usi – nafis tuyg'u. Bu tuyg'u hamisha ham yuksak ifodalarda kuylanavermasligi, unda visol, baxt tushunchalariga hamroh ayriliq, azob ham borligi Zebo Mirzo she'rlarida yanada aniq ko'rinadi. Shoir qalbini azobl原因 bu tuyg'u haqida ro'yi-rost yozadi. So'ng unga munosabat bildirishda o'zini aybdor sanaydi. Naqadar olijanab qalb egasining samimiy iqrori o'quvchini ham hayratlantirmasdan qo'ymaydi.

Men dunyoning so'nggi yo'lidan
 Shunday keldim, shunday ketarman.
 Ammo sening buyuk ko'nglingni,
 Hech kimsaga bermay o'tarman!...[4.B.28]

Ko'nglining mulkiga aylangan ishq tuyg'usi shoiraning har bir she'rda yo'ldi yulduzdek porlayveradi. Undagi po'rtana tuyg'ular, samimiy iqrorlar goh achchiq alanda, goh telba ruhda ifoda etilar ekan, barcha-barchasi subyektiv jasorat tufayli yuzaga chiqishi shubhasiz.

She'r mazmunidan bevafo yorning yolg'on muhabbati sabab lirik qahramonning hislari taranglashganligi ko'rinadi. She'rda ishlatilgan so'zlar garchi ko'p iste'molda bo'lsada, unda yangi mazmunning ifodalanishi va ruhiy-emotsional kayfiyatning paydo bo'lishi Zebo Mirzayevaning o'ziga xos uslubini ko'rsatib turadi.

Zebo Mirzayevaning deyarli barcha she'rlari ishq-muhabbat tuyg'ulariga yo'g'rilganligi bilan ahamiyat kasb etadi. Uning ijodida ko'hna ishq mavzusi o'zining takrorlanmas, yangicha ifodasini topadi. Bu she'rlarda lirik qahramon gohida mamnun, gohida mahzun, gohida tajang, gohida majnunona qiyofada namoyon bo'ladi. Bu esa she'r mazmunining rang-barangligini ta'minlaydi.

Olam va odam haqidagi tasavvurga boy she'riyat sifatida Halima Ahmedova ijodi e'tiborga loyiq. Olamni poetik timsollar orqali ifodalashda o'zgacha uslubga ega. Shoir, avvalo, o'z ruhiy dunyosini anglamoqqa urinadi. Adabiyotning bugungi kundagi bosh obrazi – inson obraziga alohida urg'u bilan yondashadi. Ijodkor obraz yaratishda hislar oqimiga tamomila bo'ysunadi. She'rlarini o'qir ekanmiz, aslida mavhumlik qaridan o'sib chiqayotgan haqiqatni ko'rgandek bo'lamiz. Shoir voqelikni badiiylashtirar ekan, kutilmagan tashbehlar bilan obraz yarata oladi. Uning tasavvur kuchi hissiyotlarini shunday harakatga keltiradiki, bunda she'r qatiga singan mazmun haqiqatga yaqin kelib qoladi. Badiiy obrazni adabiyotshunoslikning markaziy muammosi sanagan olim H. Umurov quyidagilarni yozadi: “...”obraz” deganda inson ongida in'ikos etilgan voqea-hodisalargina emas, balki shu bilan birga so'z vositasida san'atkor tomonidan anglangan, qayta ishlangan (bichib to'qilgan) va tasvirlangan hayot tushuniladi”[7.B.32]. Bundan kelib chiqib

shularni aytishimiz mumkinki, ijodkorning xayolot mahsuli ham badiiylikka yo'g'rib, obraz darajasiga chiqqa oladi. Endi bunday obraz o'zida ulkan poetik ma'noni mujassamlashtiradi. Eng qizig'i, ijodkor ongi mahsuli hisoblangan bunday obrazlar har bir yozuvchi ijodida takrorlanmasligi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Halima Ahmedova ijodida **quyosh, osmon, qush, yomg'ir, dunyo, tog', tun, tosh** kabi obrazlar borki, bularning barchasi uning ifoda uslubidan kelib chiqib, har bir she'rida takrorlanmas hodisa ekanligi bilan ham farqlanib turadi. Shuningdek, shoir voqelikni aks ettirishda poetik ko'chimlardan unumli foydalana oladi. Bu esa she'riy ifodani yanada sayqallaydi. Uning quyidagi she'rida xayolot dunyosining haqiqiy manzarasi chizilgandek ko'rinadi:

Osmon gung, bulutlar kesgan tilini,
Jonni olgudayin bu manfur jimlik –
Xanjarlar ustida o'ynagan raqqos –
Xayollar hattoki qilar og'irlik.

Osmonni bulut qoplashi-yu, yomg'ir yog'ishi holatini ijodkor shunchaki tasvirlamaydi. Borliqdan shundayligicha nusxa ko'chirmaydi. Uni poetik tafakkur qilishga intiladi. O'z dunyoqarashidan kelib chiqib, manzaraga individual yondashadi. She'r mazmuni ham ijodkor nuqtai nazari bilan badiiylilik kasb etadi. She'rdagi poetik ko'chimlar *gung osmon* – o'xshatish, *bulutlar kesgan tilini* – jonlantirish kabilar she'r mazmunini tushunishda va tasavvur qilishda muhim ro'l o'ynaydi.

Osmon, yig'lab yubor, yig'lagin osmon,
Karaxt tuyg'ularning uyg'oq doyasi.
Bulutlar izg'iydi go'yo zaminning
Samoga mixlangan ta'qiq Soyasi.[1.B.47]

She'r mazmunidan ko'rinadiki, lirik qahramonning ruhiy holati tabiat tasviriga qorishib ketgan. Ya'ni, tabiatning tund qiyofasi ijodkorning kayfiyatiga ham yuqqan. Shuningdek, mazkur misralarda jonlantirish vositasining bir ko'rinishi bo'lmish apostrofa (yunoncha – og'ish) ni ustalik bilan qo'llay olgan shoir osmonga murojaat qiladi. Osmonning yig'lashi esa bu o'rinda yomg'ir yog'ishiga ishora hamdir. Yomg'ir obrazi an'anaviy obraz bo'lib, odatda u "ko'z yosh", "g'am-qayg'u"ning ramzi sanaladi. Lirik qahramon osmonni yig'latib, o'z dardini aritmoq istaydi. Anglashiladiki, shoir osmon yig'isi, ya'ni, yomg'ir tushunchasi bilan ko'nglidagi hasrat, dard tushunchalarini bir-biriga uyg'unlashtira olgan. She'rdagi *bulut, samo, soya* kabi poetik ramzlar ham lirik qahramon kayfiyatini ko'rsatib turuvchi muhim omillar bo'lib xizmat qilgan.

A.Ulug'ov Halima Ahmedova she'riyati haqida quyidagi mulohazalarni bayon qiladi: "Shoir tuyg'ulari g'alayonini she'rdagi o'zak so'zlarga yuklaydi va ularga alohida urg'u beradi. Bu esa hissiyotlarni junbushga keltiradi, ularni o'qiyotganda ichki ovoz o'z-o'zidan ko'tarilib ketadi"[6.B.186]. Yuqoridagi she'rda ham osmonga murojaat qilish asnosida o'quvchini xuddi shunday tuyg'ular qamrab olishi shubhasiz.

Halima Ahmedova ijodida aks etgan tuyg'ular reallikdan olingan mavhum xayolotga o'xshaydi. Chunki unda shunday obrazlar borki, ular aniq ko'rsatiladi. Ifoda esa mavhumlikka yetaklaydi. Bunday obrazli tafakkur doirasida hayot mantig'i yanada murakkablashadi. O'quvchi undagi ayrim obrazlarni tasavvur qila oladi xolos. Lekin tafakkur ufqi bilan anglangan she'riyat keyinchalik kitobxon uchun yangi topilmaga aylanadi.

XULOSA: Voqelikning ijodkor asarida badiiylashishi uning ijodiy niyatiga bog'liq hodisa. Bu hodisa yozuvchining tafakkur va qalb mexanizmiga bo'ysunib, o'zining yangi qiyofasi bilan o'quvchiga qayta estetik zavq beradi. Biz bilgan va ko'rgan olam badiiy adabiyotda yangi mazmun va shakl bilan yangi qiyofa kasb etadi. Yaratilgan asar qatiga esa ijodkorning mulohazasi, aniq xulosasi singdiriladi. Bu jarayon obyekt va subyekt o'rtasida o'zgarishsiz ifoda etilmaydi, balki unga subyektning "ichki men"i ham qo'shiladi. Ana shu jarayonda ijodkorning mahorati, ijodiy saviyasi muhim ro'l o'ynaydi. Ko'z bilan ko'rilgan voqelik, qalb bilan sintez qilinsagina, yozuvchi maqsadiga erishgan bo'ladi. Ijodkor qalbi va ongida sintezlangan voqelik uning boy dunyoqarashi bilan qayta yaratiladi. Natijada yaratilgan asar borliqning poetik aksini o'zida mujassamlashtiradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Ahmedova. H. Erk darichasi. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T: 1996. B. 47
2. Akramov.B. Hozirgi o'zbek she'riyatida poetik obraz muammosi. Fil. fan. dok. diss. – T.: 1991. – B.40.
3. Mirzayeva. Z. Ishq... - Toshkent: “Akademnashr”, 2011. – B.28.
4. Mirzo. Zebo. “Nur kukunlari”. – Toshkent. Yangi asr avlodi, 2004. B.67.
5. Qozoqboy. Yo'ldosh. Yoniq so'z. Toshkent «YAngi asr avlodi» 2006. B.102.
6. Ulug'ov. A. Qalb qandili. – Toshkent: “Akademnashr”, 2013. – B.186.
7. Umurov. H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. T: 2004. B. 32.
8. Qo'naqbay TURDIBAEV, Lirikada ruhiy ifodaning o'ziga xosligi “SHarq yulduzi”, 2011–1-son. B.38.